O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 1 - fevral 47-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

Bo‘stonliq tumanida velosportning shosse (Road) turi bo‘yicha respublika va xalqaro musobaqalarni o‘tkazishiga mo‘ljallangan veloshosse sport inshootini qurish uchun yer maydonlari ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-sentyabrdagi “Velosportni rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–5251-sonli qarori 9.7-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, Bo‘stonliq tumani Qo‘shqo‘rg‘on MFY hududidan 0,50 gektar yer maydonlari ajratish bo‘yicha tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan dalolatnomasini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6243-sonli farmonining 2-bandiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-sentyabrdagi “Velosportni rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–5251-sonli qarori 9.7-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, Bo‘stonliq tumani Qo‘shqo‘rg‘on MFY hududidan 0,50 gektar yer maydonlari ajratish bo‘yicha tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan dalolatnomasiga asosan yer maydoni ajratish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Bo‘stonliq tumani Qo‘shqo‘rg‘on MFY hududidagi 79-konturda joylagan 0,50 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlari Viloyat turizm va sport bosh boshqarmasi (Saydullaxo‘jaev)ga velosportning shosse (Road) turi bo‘yicha respublika va xalqaro musobaqalarni o‘tkazishiga mo‘ljallangan

veloshosse sport inshootini qurish doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Buyurtmachiga:

Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berilsin, hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

Davlat arxitektura va qurilish nazorati inspektsiyasiga xabarnoma yuborish;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrorov) mazkur qarorga muvofiq yer maydonini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Viloyat qurilish bosh boshqarmasi (E.Po‘latov)ga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilishiga amaliy yordam berish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Maxmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**